

ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2024

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY





DEN BRAUN ASARLARIDA DETEKTIV JANR XUSUSIYATLARINING NAMOYON BO'LISHI

Safarova Zilola Tolibovna, (PhD)

Buxoro davlat universiteti

Niyazova Dilnoza Jo'rayevna, magistrant

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya. Badiiy adabiyot taraqqiyoti davomida detektiv janrida yaratilgan asarlar hamisha kitobxonlarning qiziqishlarini tortib kelgan. Maqolada detektiv janrining o'ziga xos xususiyatlari, hamda adabiyotda tutgan o'rni mashhur amerika yozuvchisi Den Braun asarlari misolida tahlilga tortiladi. Shuningdek, detektiv janrning nazariy xususiyatlari, uning paydo bo'lish tarixi va rivojlanish bosqichlari masalalari yoritiladi. Adibning "Da Vinchi siri", "Farishtalar va jinlar", "Raqamli qal'a", "Inferno" va boshqa mashhur asarlari o'zining sirli sahnalari, qahramonlarning shubhali harakatlari, turli qiziqarli jarayonlar tasviriga boyligi bilan ajralib turadi.

Kalit so'zlar. Detektiv, detektiv janr, syujet, Den Braun, muallif, asar tili.

ПРОЯВЛЕНИЕ ОСОБЕННОСТЕЙ ДЕТЕКТИВНОГО ЖАНРА В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ДЭНА БРАУНА

Сафарова Зилола Толибовна, (PhD)

Бухарский государственный университет

Ниязова Дилноза Джураевна, магистрант

Бухарский государственный университет

Аннотация. В период развития литературы, произведения созданные в детективном жанре, всегда вызывали интерес читателей. В данной статье на примере произведений известного американского писателя Дэна Брауна анализируются особенности детективного жанра и его место в литературе. Также будут освещены теоретические особенности детективного жанра, история его возникновения и этапы развития. "Код да Винчи", "Ангелы и демоны", "Цифровая крепость", "Инферно" и другие известные произведения писателя отличаются загадочными сценами, подозрительными действиями героев, богатым описанием различных интересных процессов.

Ключевые слова. Детектив, детективный жанр, Дэн Браун, автор, сюжет, язык.

MANIFESTATION OF DETECTIVE GENRE FEATURES IN THE WORKS OF DAN BROWN

Safarova Zilola Tolibovna (PhD)

Bukhara state university

Niyazova Dilnoza Jo'rayevna

Master student of Bukhara state university

Abstract. During the development of literature, works created in the detective genre have always attracted the interest of readers. This article analyzes the specific features of the detective genre and its place in literature on the example of the works by famous American writer Dan Brown. Also, the theoretical features of the detective genre, the history of its emergence and the stages of its development will be covered. The writer's "The Da Vinci Code", "Angels and Demons", "Digital Fortress", "Inferno"

and other famous works are distinguished by their mysterious scenes, suspicious actions of the characters, and rich description of various interesting processes.

Keywords: detective, detective genre, Dan Brown, author, plot, language

Kirish

“Detektiv” soʻzi inglizcha “detective” (lot. “detego”) – “fosh qilmoq”, “oshkor qilmoq” kabi maʼnolarni anglatadi. Bu janrda yaratilgan asarlarda sirli va shubhali hodisalar borasida tekshiruvlar olib boorish, savollarga javob qidirish va ularni oydinlashtirish hamda shu yoʻl bilan muammo yechimini toppish kabi masalalar tasvirlanadi. Koʻpincha bunday tekshiruvlar jinoyat va jinoyatchilarning fosh qilinishi bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, voqealar rivojlanib brogan sari, kitobxonni har tomonlama oʻrab oladi, qiziqishini oshiradi, xayolini savollar chulgʻab oladi. Chunki, bunday asarlarda yozuvchi asosiy aybdorni osonlikcha fosh qilib qoʻymaydi, koʻpincha jinoyatchi kimligi yoki voqeaning asl holati asar soʻngidagina oydinlashtiriladi. Aynan mana shu sirlilik, detektiv janrining asosiy xususiyatidir.

Detektiv janri eng mashhur adabiy yoʻnalishlardan biri sifatida uzoq tarixga ega. Uning kelib chiqishi qadimgi adabiyotga borib taqaladi va alohida janr sifatida yakuniy shakllanishi romantizm davrida sodir boʻlgan deb aytish mumkin [2]. Bir qator tadqiqotchilar, jumladan V. Xolms [3] va P. Uotson [4] detektiv janrini syujet odatda quriladigan maxsus sir, sehr mavjudligi orqali tavsiflaydi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlar tahlili

Koʻpgina manbalarda keltirilishicha, ingliz adabiyoti dunyosiga detektiv janri 1841 yilda Edgar Alan Poning “The Murders in the Rue Morgue” (“Morg koʻchasidagi qotillik”) asari bilan kirib kelgan.⁵ Boshqa bir manbalarda ham kriminalistika janrining boshlanishi Steen Blicher va Edgar Alan Poning nomi bilan bogʻliqligi hamda keyinchalik, janrning turli koʻrinishlari (detektiv, detektiv-fantastika, triller, huquqiy triller va hokazo) tarqalgani taʼkidlanadi. 1800 yillar mobaynida detektiv janri oʻz taraqqiyotining yuqori bosqichiga koʻtarildi deyish mumkin. 1878 yilda Anna Katerina Grin oʻz asari bilan amerika detektiv janrini boyitgan boʻlsa, bu yoʻnalishda eng muvaffaqiyatli ijodni, shubhasiz, Artur Konan Doyl amalga oshirdi.

Shunday boʻlsa-da, Den Brauning zamonaviy detektiv asarlari amerika adabiyotidan alohida oʻrin egalladi. Den Braun zamonaviy adabiyotning eng mashhur intellektual detektiv va triller janrida yozilgan bir qator bestseller asarlar muallifidir. Uning “Da Vinchi siri”, “Farishtalar va jinlar”, “Raqamli qalʼa”, “Inferno” nomli kitoblari butun dunyo boʻylab millionlab nusxada sotilgan.

Den Braun asarlarini detektiv janr nuqtai nazaridan tahlil qilish bir necha sabablarga koʻra zarur. Chunki, Braun klassik detektivlarga xos boʻlgan turli xil texnikalardan keng foydalanadi, ularni oʻziga xos tarzda talqin qiladi va qayta jonlantiradi, bu uning kitoblarini oʻquvchilar uchun ayniqsa jozibali qiladi[1]. Va nihoyat, Braun asarlaridagi detektiv elementlarni sinchkovlik bilan aniqlash bugungi kunda ushbu janr qanchalik hayotiy va dolzarb ahamiyatga ega ekanligini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Den Brauning asarlarida klassik detektivlarning maʼlum bir xususiyatlari va xarakterli usullari mavjud boʻlib, shuningdek, boshqa janrlarning elementlarini ham bir oz oʻzgartirilgan holatda oʻzida mujassam qiladi shu bilan muallifning oʻziga xos intellektual-detektiv uslubi yaratiladi.

⁵ <https://study.com/academy/lesson/detective-fiction-definition-history-authors.html#:~:text=The%20genre%20of%20detective%20fiction,Murders%20in%20the%20Rue%20Morgue%20.>



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Braunning romanlarida detektiv janrining asosiy elementlari – sir, tergov, shubha, sirlarni yechish, fitna, yashirin hayot va boshqalardan mohirona foydalanilgan. Mazkur tadqiqotda, Braun asarlarini detektiv adabiyotning klassik namunalari bilan taqqoslash uchun intertekstual tahlildan foydalaniladi.

Ta'kidlash joizki muallifning ijodi, u 2000-yilda o'zining birinchi eng ko'p sotilgan "Farishtalar va jinlar" kitobi nashr etilganidan beri faol o'rganilmoqda. Bir qator asarlar Bosh qahramon Robert Langdon obrazini va Braun kitoblaridagi diniy mavzularni tasvirlash xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Boshqa tadqiqotchilar uning asarlarining ramziy-mifologik qatlamini ko'rib chiqmoqdalar. Ayniqsa, adibning "Da Vinchi Siri" asari butun dunyo bo'ylab eng ko'p sotilgan va doimiy ravishda yuqori talabda bo'lib kelayotgan romanlaridan biriga aylangan, hamda kitobxonlar va olimlar o'rtasida intellektual munozaralarga sabab bo'lgan. Biroq, Braun ijodida detektiv janrining xususiyatlari va usullarini keng tahlil qiladigan kompleks ish hozircha mavjud emas.

Tahlil va natijalar

Klassik detektivlarda eng muhim element topishmoq yoki sir bo'lib, uning ochilishi atrofida syujet qurilgan. Braun ham shunga o'xshash texnikadan keng foydalanadi. Uning kitoblaridagi syujetning asosi ba'zi yashirin ma'lumotlarni o'z ichiga olgan shifrlangan xabarlar yoki ramzlardan iborat. Jumladan, "Da Vinchi siri" muzeydagi sirli qotillik hamda uni fosh qilish jarayonlaribilan bog'liq voqealarni qamrab oladi. Bosh qahramon Garvard universiteti professori Robert Lengton bo'lib, diniy ramzlar bo'yicha mutaxassisdir. Luvr muzeyi bosh noziri jasad tanasidagi shifrlan xabar bilan topiladi. Bu xabar qotillik sirini Leonardo da Vinchi asarlari ichidan izlashga ishora qilardi. "Mona Lisa" va "Sirli kecha" asarlarini tahlil qilish bu jumboqni yechishga yordamlashishni boshlaydi. Asar kitobxonni Leonardo da Vinchi asaridagi ramzlar va ularga yashiringan sirlar ortidan san'atkorona ergashtirib ketadi va kutilmagan xulosalar bilan hayratga soladi. Bunday holatni Braunning deyarli barcha asarlarida kuzatish mumkin. Masalan, "Da Vinchi siri'da bu Muqaddas Grailni qidirish, "Farishtalar va jinlar"da - illuminati sirlari, "Inferno"da - Dantening "Ilohiy komediya"si bilan bog'liq ramziy ma'nolarni ochish. Demak, Braun romanlari syujetining asosini haqiqiy va xayoliy tarixiy faktlar hamda diniy matnlarga aloqador bo'lgan sirli shifrlangan xabarlar, ularning yechimiga olib boruvchi ishoralar tashkil qiladi deb ayta olamiz. Aynan mana shu jarayonlar asarning badiiy qimmatini va ta'sirchanligini oshirishda xizmat qiladi.

Muhokama

19-asr oxiri va 20-asr boshlaridagi klassik detektivlarda bo'lgani kabi, Braunning aksariyat kitoblarining markaziy qahramoni simvologiya (Ramziy belgilarni o'rganuvchi) professor Robert Langdon bo'lib, u san'at, din tarixi va boshqalar bo'yicha keng ensiklopedik bilimlarga ega. U o'ziga xos "xususiy detektiv" rolini o'ynaydi, mantiqiy tahlil, bilimdonlik, sezgi va assotsiativ fikrlash yordamida murakkab sirlarni va ramziy jumboqlarni ochadi [9]. Shu bilan birga, unga tergov jarayonida ko'pincha yosh ayol qiyofasidagi sherigi yordam beradi. Shunday qilib, "Da Vinchi siri"da bu Sofi Neve, "Inferno"da esa Siena Bruks obrazlari klassik detektiv janrida uchragani kabi, "detektiv yordamchi" sifatida namoyon bo'ladi.

Braun tomonidan ishlatilgan yana bir o'ziga xos xususiyati – bu jahon adabiyoti va san'ati asarlariga ko'plab ishoralar qilganidir. Ma'lumki, 19-20-asrlardagi klassik detektivlar Artur Konan-Doyle tomonidan yaratilgan Sherlok Xolmsga juda ko'p ishoralarni o'z ichiga oladi. Xuddi shunday, Braunning romanlari Dantening "Ilohiy komediya", "Mona Liza" va Leonardo

da Vinchining boshqa asarlari, Bernard Shou risolalari va boshqalarning yashirin va aniq iqtiboslari bilan to'lib toshgan. [7].

Bunday intertekstuallik bir vaqtning o'zida bir nechta bajarganining guvohi bo'lamiz. Birinchidan, bu qahramonlarning o'qimishli va ziyoli ekanligidan dalolat beradi. Ikkinchidan, boshqa matnlarga ishoralar ko'pincha muhim ma'lumot beruvchi belgilar, sirni hal qilish uchun maslahatlar bo'lib xizmat qiladi. Va nihoyat, uchinchidan, ular o'quvchini belgilar va kodlarni dekodlashning qiziqarli o'yiniga jalb qilish orqali hikoyaga o'ziga xos tarixiy va madaniy ma'no beradi.

Shunday qilib, Den Braun asarlarining intertekstualligi ba'zi detektiv an'analarning uzluksizligi va bir vaqtning o'zida ularni postmodernizm ruhida ijodiy qayta tasavvur qilish haqida gapiradi.

Masalan, "Da Vinchi siri" va "Inferno" da haqiqiy tarixiy shaxslar - Leonardo da Vinchi, Dante Aligeri, Isaak Nyuton va boshqalar paydo bo'ladi. "Farishtalar va jinlar" da voqea Vatikanda bo'lib o'tadi, papalik davriga oid haqiqiy faktlariga asoslanadi. Fantastika va voqelikning bunday aralashmasi klassik detektiv hikoyalarga ham xosdir.

Den Braun asarlarining yana bir o'ziga xos xususiyati diniy ramzlar, tushunchalar, personajlardan faol foydalanishdir. Ma'lumki, ko'plab klassik detektivlar Muqaddas kitob, buyuklarning hayoti va boshqa diniy manbalardan olingan motivlarni ham o'z ichiga oladi [3].

Bunday diniy tasavvuf, bir tomondan, detektivning an'anasini aks ettiradi, boshqa tomondan, Den Brauning asarlariga o'ziga xos falsafiy chuqurlik beradi, bu ularning mashhurligini belgilaydi.

Den Braun asarlarini jozibador qilayotgan yani bir xususiyat zamonaviy ilm - fanning eng dolzarb muammolari va yutuqlariga murojaat qilishdir. Ma'lumki, klassik detektivlar, ayniqsa ilmiy-fantastik detektivlar ham o'z davrining o'tkir ilmiy savollarini tez-tez ko'tarishgan [4]. Sun'iy intellekt, genetik tajribalar, bioinjeneriya, sintetik biologiya, klonlash imkoniyatlari va boshqalarni D.Braun asarlarida asosiy mavzu darajasiga olib chiqadi. Ushbu mavzular uning romanlari atrofida sodir bo'ladigan markaziy syujet yaratuvchi elementlarga aylanadi.

Bundan tashqari, Den Braun romanlari qisqa boblar, qahramonlar nutqi ifodalangan dialoglar, ta'qiblar va tez rivojlanayotgan harakatlar bilan dinamik hikoya qilish uslubi bilan ajralib turadi [9]. Ijodkor, shu bilan birga, asarlari syujetini tuzishda markaziy o'rinni qahramonlar tomonidan murakkab ramziy matnlarni - xaritalar, kodlar, shifrlangan xabarlarni dekodlash kabilarga ham tez-tez murojaat qiladi. Bularning qahramonlar tomonidan talqini asarning asosiy sirini ochish uchun kalit bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Den Braun o'z asarlarida klassik detektiv romanlarning o'ziga xos xususiyatlaridan - mantiq va bilim yordamida qahramon hal qilishi kerak bo'lgan jumboqlar, sirlar, kodlar, ramzlardan faol foydalanadi. Shu bilan birga, u ushbu an'anaviy elementlarni zamonaviy ilmiy va madaniy bilimlar bilan to'ldiradi va shu bilan intellektual detektiv jumboq romanining o'ziga xos shaklini yaratadi. Aynan shunday janr modifikatsiyasi qiziqarli syujet va "abadiy" mavzularga murojaat qilish bilan birgalikda Braun kitoblarining mashhurligini keltirib chiqardi.

References:

1. Иванов, И. И. (2015). Особенности поэтики романов Дэна Брауна. Вопросы литературоведения, 3, 176-189.
2. Коваль, Т. Б. (2005). Истоки и пути развития детективной литературы. Филологический вестник, 7, 23-29.
3. Холмс, В. (1998). Природа детектива. Детектив: истоки, эволюция, судьба жанра. Москва: Вагриус.
4. Dilnoza, Niyazova, and Safarova Zilola Tolibovna. "EXPRESSION OF SCIENCE FICTION GENRE FEATURES IN THE WORKS OF DAN BROWN." *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)* 8.12 (2023): 202-204.
5. Watson, J. H. (2011). The golden age of detective fiction. *American Literary History*, 23(1), 97-114.
6. Жукова, А. А. (2013). Религиозный дискурс в романах Дэна Брауна. Христианство и современная культура, 3, 122-134.
7. Ермолаева, Н. А. (2017). Символика романов Дэна Брауна. Филология и лингвистика в современном обществе, 45-47.
8. Сидоров, А. А. (2009). Нарративная стратегия романов Дэна Брауна. Вестник Московского университета. Серия 9. Филология, 2, 98-108.
9. Brown, D. (2013). *Inferno*. New York: Doubleday.
10. Воронцова, Т. А. (2016). Роберт Лэнгдон как воплощение образа "частного детектива" в романах Дэна Брауна. Литературоведческий журнал, 34, 176-187.
11. <https://study.com/academy/lesson/detective-fiction-definition-history-authors.html#:~:text=The%20genre%20of%20detective%20fiction,Murders%20in%20the%20Rue%20Morgue%22>.



16	Ma'naviy tarbiyada vorislik va zamonaviylikning o'zaro uyg'un jihatlari Ahmedova O'.N.....	240
17	Ijtimoiy konsolidatsiya omillarini amalga oshirishni umummilliy harakatga aylantirish zarurati. Hayrullayev S.....	247
18	Трансформация моделей современного высшего образования Филиппов О.А.....	254
19	Фактор прав человека в строительстве нового Узбекистана Хатамов Ф. Ф.....	264
20	Antik davr faylasuflari ta'limotida jamiyat barqaror rivojlanishiga doir qarashlar va ularning ijtimoiy-falsafiy tahlili Zaynobidinova N.I.....	269
21	Jamiyat a'zolari ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari Mavrulova M.A.....	274

FILOLOGIYA FANLARI

10.00.00

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

PHILOLOGICAL SCIENCES

1	Ingliz va o'zbek tilidagi fiziologik holat fe'llarning grammatik xususiyatlari Fozilov P.Sh.....	283
2	Nasriy asarlar tarjimasida tasviriy vositalarni qayta yaratish masalasi Nurdinova F.X.....	287
3	Realiya – milliy madaniyat sadosi sifatida Begimkulova Sh.A.....	292
4	Лексикографическая интерпретация слов в идеографических словарях Хамраева Ё.Н.....	296
5	Tilshunoslikda sleng atamasining qo'llanishi masalasiga doir mulohazalar Xalmenova T.Z.....	301
6	A comparative study on the formation patterns of color words in uzbek and chinese language Liu L.....	305
7	Ingliz va o'zbek tillarida "donolik" va "nodonlik" konseptlarini lisoniy voqellanturuvchi somatizmlar Tojiboyeva M.Sh.....	311
8	Den Braun asarlarida detektiv janr xususiyatlarining namoyon bo'lishi Safarova Z.T.,Niyazova D.J.....	315
9	Artur Konan Doylning ilmiy va fantastika hikoyalar haqida Abdurashidova N.A.....	320
10	Soha terminlari asosida shakllangan o'xshatishlar tahlili Abduvohidova X.....	324